



EKONOMIK CONSEQUENCES OF COTTON MONOCULTURE DURING THE DEPRESSION

Dilaram Tadjievna Yakubova

Professor of the Department of History and Philosophy

Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17249809>

ARTICLE INFO

Received: 25th August 2025

Accepted: 30th August 2025

Online: 31st August 2025

KEYWORDS

Cotton monopoly,
Surkhandarya, economic
liberalization, environmental
issues, Aral Sea, agriculture,
socio-economic development.

ABSTRACT

The article is dedicated to the study of the reforms carried out as a result of the cotton monopoly policy in the Surkhandarya oasis and their socio-economic, environmental, and political significance. The work primarily analyzes the impact of centralized policies aimed at cotton cultivation in the Surkhandarya region of Uzbekistan during the Soviet Union in the 1920s and 1930s, as well as their consequences for the economy, ecology, and living standards of the population. Special attention is given to changes in the agricultural structure resulting from the cotton monopoly, excessive use of water resources, and environmental issues that led to the tragedy of the Aral Sea. At the same time, the reforms implemented during the years of independence to mitigate the negative consequences of this policy are examined, in particular, economic liberalization, diversification of agriculture, and improvement of local governance systems. The study will scientifically analyze the impact of the cotton monopoly on socio-economic processes in the Surkhandarya region, as well as the role and significance of reforms in the development of the region.

ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ПОСЛЕДСТВИЯ ХЛОПКОВОЕ МОНОКУЛЬТУРА В ГОДЫ ДЕПРЕССИИ

Якубова Диларам Таджиевна,

профессор кафедры истории и философии

Деновского института предпринимательства и педагогики

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17249809>

ARTICLE INFO

Received: 25th August 2025

Accepted: 30th August 2025

Online: 31st August 2025

KEYWORDS

ABSTRACT

Статья посвящена изучению реформ, проведенных в результате политики хлопковой монополии в Сурхандарьинском оазисе, и их социально-



Хлопковая монополия, Сурхандарья, Мустаби, экономическая либерализация, экологические проблемы, Аральское море, сельское хозяйство, социально-экономическое развитие.

экономическому, экологическому и политическому значению. В работе в основном анализируется влияние централизованной политики, направленной на выращивание хлопка в Сурхандарьинской области Узбекистана в период Советского Союза в 1920-1930-е годы, ее последствия для экономики, экологии и уровня жизни населения. Особый интерес представляют изменения в структуре сельского хозяйства в результате хлопковой монополии, чрезмерное использование водных ресурсов и экологические проблемы, приведшие к трагедии Аральского моря. В то же время рассматриваются реформы, проведенные в годы независимости для устранения негативных последствий этой политики, в частности, экономическая либерализация, диверсификация сельского хозяйства и совершенствование систем местного управления. В исследовании будет научно рассмотрено влияние хлопковой монополии на социально-экономические процессы в Сурхандарьинской области, а также роль и значение реформ в развитии региона.

TURG'UNLIK YILLARIDA SURXON VOHASIDA PAXTA YAKKA XOKIMLIGINING IQTISODIY OQIBATLARI

Yakubova Dilaram Tadjiyevna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Tarix va falsafa kafedrası professori

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17249809>

ARTICLE INFO

Received: 25th August 2025

Accepted: 30th August 2025

Online: 31st August 2025

KEYWORDS

Paxta yakkahokimligi, Surxondaryo, mustabi, iqtisodiy liberallashtirish, ekologik muammolar, Orol dengizi, qishloq xo'jaligi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Surxondaryo vohasida paxta yakkahokimligi siyosati natijasida amalga oshirilgan islohotlar va ularning ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik hamda siyosiy ahamiyatini o'rganishga bag'ishlanadi. Ishda, asosan, XX asrning 20-30-yillarida Sovet Ittifoqi davrida O'zbekistonning Surxondaryo viloyatida paxta yetishtirishga qaratilgan markazlashgan siyosatning ta'siri, uning iqtisodiyotga, ekologiyaga va aholi turmush darajasiga oqibatlari tahlil qilinadi. Paxta yakkahokimligi natijasida qishloq xo'jaligi tuzilmasidagi o'zgarishlar, suv resurslarining haddan tashqari ishlatilishi va Orol dengizi fojiasiga olib kelgan ekologik muammolar alohida e'tibor



markazidadir. Shu bilan birga, mustaqillik yillarida ushbu siyosatning salbiy oqibatlarini bartaraf etish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar, xususan, iqtisodiy liberallashtirish, qishloq xo'jaligini diversifikatsiya qilish va mahalliy boshqaruv tizimlarini takomillashtirish kabi yo'nalishlar ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda Surxondaryo viloyatida paxta yakkahokimligining ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga ta'siri, shuningdek, islohotlarning mintaqa rivojlanishidagi o'rni va ahamiyati ilmiy asosda yoritiladi.

KIRISH

Surxondaryo vohasi O'zbekistonning janubiy hududlaridan biri sifatida qishloq xo'jaligi, xususan, paxta yetishtirish sohasida muhim o'rin tutadi. Sovet Ittifoqi davrida amalga oshirilgan paxta yakkahokimligi siyosati mintaqa iqtisodiyoti va ijtimoiy hayotiga chuqur ta'sir ko'rsatdi. Ushbu siyosat nafaqat qishloq xo'jaligi tuzilmasini, balki ekologik muvozanat va aholining turmush darajasini ham o'zgartirdi. Paxta yetishtirishga haddan tashqari e'tibor qaratilishi suv resurslarining noto'g'ri boshqarilishiga, tuproq unumdorligining pasayishiga va Orol dengizi fojiasiga olib kelgan jiddiy ekologik muammolarni keltirib chiqardi. Mustaqillik yillarida O'zbekiston hukumati paxta yakkahokimligining salbiy oqibatlarini yumshatish va mintaqa iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish maqsadida bir qator islohotlarni amalga oshirdi. Ushbu islohotlar Surxondaryo vohasida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, ekologik muammolarni hal qilish va aholi farovonligini oshirishda muhim rol o'ynadi. O'zbek dehqonlarining paxtachilikni rivojlantirish bo'yicha sovet hukumatining islohatlarni amalga oshirish jara'endagi ahvoli, paxta xom " ash'isini tay'rlash bilan bog'liq yer " suv islohatlari, mahalliy aholidan yer va mol " mulkni tortib olish bilan bog'liq jara'nlarni tahlil etish tarixnavislik fanining muhim masalasidir.

Sovet hokimiyati Oktyabr to'ntarilishining dastlabki kunlaridan boshlab, xususiy mulkni bekor qilib, «Yer to'g'risida» gi dekretni qabul qildi. Yerga bo'lgan xususiy mulkchilik tugatilib, «Yer komitetlari» orqali qishloq xo'jaligini boshqarishga o'tdi. Iqtisodiy qoloqlik, favqulodda hokimiyatning boshqaruv tizimi hamda «Harbiy kommunizm si'osati»ga o'tilishi natijasida xo'jalik yuritishning harbiycha tartibga tushishi mahalliy aholining ha'etida jiddiy qiyinchiliklarni keltirib chiqardi. Paxta monopoliyasi bilan bog'liq mehnat majburiyatlarining tinimsiz oshirilishi, Markaz topshirg'i asosida paxta xom - ash'isini yetkazib berish masalasida sovet hukumatining o'zboshimchalik va zo'ravonlik si'osati, aholining noroziligi va mavjud tuzumga qarshi kurashga chiqishiga sabab bo'ldi. Fuqarolar urushi yillarida Surxon-Sherobod vohasidagi irrigatsiya va melioratsiya ishlari izdan chiqdi, ko'pgina suv inshootlari buzilib, ariq va kanallarni o'tkazish deyarli kamayib, sug'oriladigan yerlarning ko'pi qishloq xo'jalik tarmog'ida yaroqsiz holga kelib qoldi. 1920- yillardagi fuqarolar urushi davrida paxta yetishtirish masalasida mehnat majburiyatlarining haddan tashqari ko'pligi xalqning dehqonchilik va sug'orish ishlariga bo'lgan munosabatini keskin o'zgartirdi. Yerga va suvga nisbatan xususiy mulkchilikning bekor qilinishi natijasida paxta ta'minotining asosini tashkil



etuvchi sug'orish tizimi izdan chiqib, kanal va ariqlarni tozalash ishlari o'z holiga tashlab qo'yildi. Fuqarolar urushidan keyin Surxon-Sherobod vohasida paxta ekinlari uchun muhim hisoblangan irrigatsiya va melioratsiya ishlari tiklanib, paxtachilikka mo'ljallangan jamoa xo'jaliklarining tashkil etilishi natijasida bu sohaga alohida e'tibor berila boshlandi. Milliy davlat chegaralanishi vaqtida, Surxon-Sherobod vohasida sug'oriladigan yerlardan faqat 63 ming desyatina yerga paxta ekinlari uchun dehqonchilik qilinardi.¹

Sovetlar davrida katta fojia tusini olgan qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish jara'ida badavlat dehqon xo'jaliklarining tugatilishi, «Quloq» qilingan dehqonlarning oila a'zolari bilan begona yurtlarda majburiy surgun qilinishi va bunday si'osatning mudhish oqibatlarini xolis va haqqoniy o'rganish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi.

1920-1940 yillarda amalga oshirilgan qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish jara'ini Surxondaryo viloyatida o'ziga xos va og'ir sharoitlarda o'tdi. Chunki bu viloyat respublikaning boshqa hududlaridan farqli ravishda Chor Rossiyasi mustamlakachiligini o'z boshidan kechirmagan, sovet rejimi esa 1920 yillarda o'rnatilgan va ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hamda demografik jara'nlardan ham o'ziga xos xususiyatlariga ega edi. Ana shu xolatlarda kollektivlashtirish, quloq qilish va surgun etish kompaniyalarini o'tkazishda o'z ta'sirini ko'rsatdi. Ammo bu tarixiy jara'en bo'yicha sovetlar davrida xech qanday tadqiqot ishlari olib borilmadi, bu mavzuga sovet hukmronligi davrida ehti'ej ham, zaruriyat ham sezilmadi.

1925 yil yanvarda Sovet hukumati paxtaga bo'lgan talabni qondirish maqsadida Surxondaryo okrugini tashkil etib, uning ixti'origa 62,129 ming desyatina yer maydonini ajratdi. Ushbu paxta ekishga mo'ljallangan yer maydonining 52,5 ming desyatini sug'orishga yaroqli edi. Okrug tashkil etilgan davrda paxtaga bo'lgan talabni qondirish uchun o'rtacha bir omochga 2,72 desyatina yer, bir baronaga 9,49, bir ketmon va belga 2,3, bir o'roqqa 1,70 desyatini yer to'g'ri kelgan.² 1925 yildan boshlab Sovet hukumatining yer-suv islohoti tufayli Surxon vohasida Markaz ko'rsatmasining rejasi asosida tezlik bilan paxta ekin maydonlarni ko'paytirish uchun sug'orish tizimini hashar yo'li bilan tiklash, yangi suv inshootlarini qurish, suv ta'minotini yaxshilash borasida amaliy ishlar qilina boshlandi. Sherobod tumani qishloq xo'jaligi uchun qulay bo'lganligi tufayli 1926 yil 1 apreldan boshlab Qo'shchi uyushmalari tuzish tezlashdi va paxta, meva, sabzavot yetishtiruvchi xo'jaliklarning iqtisodiy qudrati oshib bordi. Markaziy sanoat korxonalarni paxtaga bo'lgan talabini ta'minlash maqsadida paxtani birlamchi qayta ishlovchi sanoat korxonalarni zudlik bilan qurish, zavodlarga paxtani o'z vaqtida yetkazib berish uchun yo'llar qurish, paxta jamlaydigan maydonchalarni ishga tushurishga jadal e'tibor berildi. Natijada, 1924-1927 yillarda Sherobod-Termiz, Sherobod-Denov, Sherobod-G'uzor tosh yo'llarini qurish boshlanib, mahalliy sanoatga ham e'tibor berila boshlandi.² 1928 yil

¹Qobilov E.O. Surxondaryo sanoatining ilk odimlari.-Termiz.; «Jayxun», 1993 y. 24 -b

² «Surxondaryo» albomi. -T.: Sharq, 1997, 86-bet



Qorasuv darèsidan o'tuvchi ko'prik qurildi. Umuman, 1928 yil boshlarida kelganda Sherobodda 318 ta turli xil èg'-juvoz, mato-bo'z, etikdo'zlik, temirchilik, qandolatchilik, sopol-ko'za kabi hunarmandchilik ustaxonlari mavjud edi. 1920 yillar oxiriga kelib ham ochiq, qashshoqlik bartaraf etilmagani natijasida Sherobodagi jami axolining 51,2% og'ir qiyinchilikni boshdan kechirgan edi. Paxta yetishtirishni ko'paytirish uchun yangi yerlarni o'zlashtirish imkoniyati bo'lmagan dastlabki yillarda sovetlar hukumat o'ziga to'q va o'rta hol dehqonlarni yerlarni tortib olish, kambag'al dehqonlar kuchi bilan bepul ishchi kuchini shakllantirish tufayli paxta ekinlarni ekish va yig'ishtirib olishga harakat qildi. Hatto paxta yetishtirishdagi sovet hukumatining nohaq siësatini tushunib yetgan mahalliy boylar hamda o'rta hol dehqonlar o'z xohishlari bilan o'zlarini yerlarini bepul sovet hukumatiga topshirdilar, chunki aks holda qatog'on èki surgun qilinishdan saqlanish uchun o'z mol " mulklarni o'z istaklari bilan sovet hukumat ixtëriga topshirdilar. Masalan, Sherobodlik yirik boy o'g'li A. To'qsaboyev shular jumlasidandir. Ko'pgina o'qimishli sofdil kishilar bu masalada ishtirok etish istagini bildirdilar³. Lekin 1926 yildan boshlab kuchaygan Stanlincha sosializm qurish rejasi boshqa joylarda bo'lgani kabi Surxon vohasida ham og'ir ko'chdi. Ko'plab mahalliy millat vakillari va faol kishilar qamoqqa olinib tuhmat yo'li bilan qirib tashlandi èki qiynoq ostiga olinib boshqa joylarga surgun qilindi. Ayniqsa tozalash vaqtida deyarli ko'zga ko'ringan, xaqiqiy mehnatkash, o'ziga to'q kishilar aëvsiz jazoga tortildi. Ularni o'rniga o'sha davrda ishonchli hisoblangan èt millat vakillari olib kelindi. Sherobodlik haqiqiy o'qimishli, paxta ilmini biladigan, iqtisodiy xo'jalik yuritishni juda yaxshi bilgan Norboyev Tursun go'èki Ibrohimbekga qurol yetkazib berishda ayblanib bo'xton tamg'asi bilan tuxmatga qolib, qattiq qiynov orqali kasallik bilan bevaqt vafot etdi. Norboyev Tursun o'z mexnati, tirishqoqligi bilan oqsaqol nomiga sazovor bo'lib, Surxondaryo okrugi boshqarmasining iqtisodiy va moliyaviy masalalari bo'yicha o'rinbosari darajasiga yetgan edi. Bunday kishilar nihoyatida ko'p bo'lib, ularning hammasi turli yo'llar bilan jazolanadi⁴.



Shuningdek paxtachilikni rivojlantirish, mayda ishlab chiqarish korxonalarni kuchaytirish bo'yicha, Tallashqon arig'ini qurib tugatish, dehqonchilik ekinlari turini ko'paytirish bo'yicha alohida qarorlar qabul qilindi. 1926 yil 11 iyunda Sherobodda viloyat ijroiya kengashining 11-quriltoyi bo'lib, unda paxtachilikni jadal rivojlantirish, vayron bo'lgan xo'jalikni tiklash, talonchilikning oldini olish, iqtisodiy xo'jalik yuritishni nazorat qilish kabi ko'rsatmalar, qishloq xo'jalik artellarini tuzishga kirishish kabi masalalar muhokama qilindi. Bu masalalar bo'yicha Isoxo'jayev, To'rayev Z, Nièzov N., Murodov I., Masadovlar ma'ruzasi tinglandi. Shuningdek, ko'ngilli otryad boshlig'i Eshnièz Aminov «Qizil bayroq» ordeni bilan mukofatlandi. Quriltoy Boboxo'jayev Abdusamat, Quvvatov Ch., Norqulov R, Norboyev Tursunovlarga madaniy-iqtisodiy turmushga oid rejalar ishlab chiqish topshirildi. Sherobod hududida tinchlik saqlash, davlat mol-mulkni himoya qilish uchun Quvvatov Egamberdi, Jangirov Xolièr, Qishloqbozorilik Oydin Rajabov rahbarligidagi ko'ngilli otryadlarni tuzishga alohida e'tibor berildi³.

1925 yil 18 yanvar O'zbekiston hukumatining qaroriga muvofiq Surxondaryo okrugi 3 ta uyezdni o'z ichiga oluvchi Boysun, Sariosiè, Sherobod hududlariga bo'lindi. Sherobod uyezdni markazi Sherobod shahri bo'lib, 1925 yil 17 yanvardagi qaroriga muvofiq 4 ta asosiy hududiy tarmoqqa bo'lindi⁴. O'zbekiston Markaziy Ijroiya qo'mitasi 1926 yil 29 sentyabrdagi qaroriga muvofiq O'zbekistonda boshqaruv tizimini yaxshilash maqsadida yangi tumanlashtirish tizimini yaratdi. Natijada Chor Rossiyasi amirlik, xonliklar davridagi boshqaruv tizimi bekor qilinib, Sho'ro mamlakatining iqtisodiy talablariga mos holda ishlab chiqarishni rivojlantirishga, keng dehqon tabaqalariga xizmat ko'rsatishga, Sovet tuzumining ijtimoiy-iqtisodiy, sièsiy manfaatlariga mos keladigan boshqaruv tizimi tashkil etildi. 1926 yil 29 sentyabrdagi O'zbekiston Markaziy Ijroiya qo'mitasi Kengashining qaroriga muvofiq Surxondaryo mintaqasi markazi Sherobod shahri bo'ldi. Natijada Surxondaryo okrugi ixtièriga 6 ta tuman: Boysun, Denov, Jarqo'rg'on, Pattakesar, Sarisoiè, Sherobod tumanlari kiritildi. 1926 yilda Surxon vohasining 37,2 ming dehqon xo'jaligida 25800 dona omoch, 11626 dona ketmon, 158 ta ot plugi, 77 dona temir barona, 30307 dona bel, 38271 dona o'roq, 5415 dona shoxa bo'lib, ushbu mehnat qurollari bilan dehqonchilik ishlari qilingan va yangi yerlar o'zlashtirilib, sug'orish ishlarida foydalanilgan. Sovet hukumati o'zining agrar sohadagi sièsatini amalga oshira borib, Surxon-Sherobod vohasida paxta xom " ashèsini ta'minlash maqsadida yangi yerlarni o'zlashtirish va sug'orish inshootlarini qurish uchun 1926 yilda 6 dona, 1927 yilda esa 13 dona traktor olib keldi.² XX asrning 20-yillarida Surxondaryoning «Meliorativ o'rtoqlik uyushmalari» tashabbusi bilan paxta ekishni jadallashtirish uchun kambag'al va o'rta hol dehqonlar «Qo'shchi uyushmasi»ga birikdilar. 1927 yilda «Qo'shchi uyushmasi» a'zolari soni 18 ming nafarga yetdi.³ Sovet hukumati yangi yerlarni o'zlashtirishda irrigatsiya-melioratsiya tarmoqlarini qurish va markaz sanoatining paxtaga bo'lgan talabini qondirish maqsadida, 1927-1928 yillarda uzoq muddatga mo'ljallab qishloq xo'jaligi uchun 540752 so'm, qisqa muddatga mo'ljallab esa 434165 so'm mablag' ajratdi. 1926 yilning oxiri va 1927 yilning boshlarida Surxondaryoda qishloq xo'jaligini yangi tuzum asoslarda qayta qurish boshlandi⁴. Mamlakat xalq xo'jaligini rivojlantirishning birinchi besh yillik plani (1929-1933 yillar)

³ «Surxondaryo» albomi. -T.: Sharq, 1997, 220 bet

⁴ Tursunov S.N. Qobilov E.O. Pardayev T.R.Murtazayev Z.M., Surxondaryo tarix ko'zgusida -T., «Sharq» 2001 y.18-bet.



yuzasidan Direktivalarni qabul qilgan va qishloq xo'jaligini jamoalashtirishga qaratilgan bosh yo'lini belgilab bergan VKP(b)15 s'yezdidan keyin Surxondaë okrugi qishloq xo'jaligida jamoa xo'jaliklarini tashkil etish, Yevropa inventarlarini joriy qilish va paxta ekinini xosildorligini oshirishning intensiv ravishda taraqqiy etishi boshlanib ketdi. Biroq sovet hukumati tomonidan amalga oshirilgan paxta yakka hokimligi siësatì zaminda mahalliy aholini ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy manfaatlarni himoya qilish masalasi emas balki Markazni manfaatlarni himoya qilish, paxta xom-ashësinì ko'paytirish, harbiy mudofa salohiëtini kuchaytirish maqsad qilib olingan edi. Markazni paxta yakka homiligi siyosati yildan-yilga ko'chayib, mahalliy aholini milliy qadriyatlari kamsitilib, asrlar osha davom etib kelaëtgan xo'jalik tizimi izdan chiqarildi.

Xulosa. Surxondaryo vohasida paxta yakkahokimligi siyosati XX asrning ikkinchi yarmida viloyatning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Ushbu siyosat qishloq xo'jaligining bir yoqlama rro'rganishga bag'ishlanadi. Ishda, asosan, XX asrning 80-yillarida Sovet Ittifoqi davrida O'zbekistonning Surxondaryo viloyatida paxta yetishtirishga qaratilgan markazlashgan siyosatning ta'siri, uning iqtisodiyotga, ekologiyaga va aholi turmush darajasiga oqibatlari tahlil qilinadi. Paxta yakkahokimligi natijasida qishloq xo'jaligi tuzilmasidagi o'zgarishlar, suv resurslarining haddan tashqari ishlatilishi va Orol dengizi fojiasiga olib kelgan ekoloik muammolar alohida e'tibor markazidadir. Shu bilan birga, mustaqillik yillarida ushbu siyosatning salbiy oqibatlarini bartaraf etish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar, xususan, iqtisodiy liberallashtirish, qishloq xo'jaligini diversifikatsiya qilish va mahalliy boshqaruv tizimlarini takomillashtirish kabi yo'nalishlar ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda Surxondaryo viloyatida paxta yakkahokimligining ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga ta'siri, shuningdek, islohotlarning mintaqa rivojlanishidagi o'rni va ahamiyati ilmiy asosda yoritiladi. Ishning maqsadi – ushbu islohotlarning viloyat iqtisodiyoti va aholisi farovonligiga qo'shgan hissasini baholash hamda kelajakdagi rivojlanish strategiyalari uchun takliflar ishlab chiqishdir.

References:

1. «Surxondaryo» albomi. -T.: Sharq, 1997, 220 bet
2. Lenin bayrog'i, 1970, 8 aprel.
3. Surxondaryo VDA, 18-jamg'arma, 1-ro'yxat, 133-ish, 29-varaq.
4. Qobilov E.O. Surxondaryo sanoatining ilk odimlari.-Termiz.; «Jayxun», 1993 y. 114 -b.
5. Jaloliddin Mirzayev. «Termiz tarixi» kitobi. «Sharq» 2001.120 bet.
1. Tursunov S.N. Qobilov E.O. Pardayev T.R.Murtazayev Z.M., Surxondaryo tarix ko'zgusida - T., «Sharq» 2001 y.313-377 bet.